

MOLIYA TUSHUNCHASI VA UNING FUNKSIYALARI

Norqulova Shahzoda

Termiz davlat universiteti

Iqtisodiyot va turizm fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliya tushunchasi, moliyaning ahamiyati, moliyaning bajaradigan funksiyalari, moliyaning resursi ya`ni ob`ekti hisoblangan moliya maqsadli pul fondlari hamda moliya funksiyalarining o`zaro bog`liq bo`lib, bir birini to`ldirib turishi haqida ma`lumotlar atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: Moliya, moliyaning funksiyalari, trans-fertlar to`lovlar, maqsadli pul fondlari, Yalpi Ichki Mahsulot (YaIM), soliq, davlat byudjeti, moliyalashtirish, iqtisodiyot.

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается понятие финансов, значение финансов, функции, выполняемые финансами, целевые денежные фонды финансов, объектом которых является ресурс финансов, а также взаимосвязь и взаимодополняемость финансовых функций.

Ключевые слова: Финансы, функции финансов, трансферты платежи, целевые денежные средства, валовой внутренний продукт (ВВП), налоги, государственный бюджет, финансирование, экономика.

Annotation: This article provides comprehensive coverage of the concept of finance, the importance of finance, the functions performed by finance, the resource of Finance i.e. financial target monetary funds, the object of which is calculated, and the interrelationships of financial functions, complementing one.

Keywords: Finance, functions of Finance, trans-ferts payments, targeted monetary funds, Gross Domestic Product (GDP), tax, state budget, financing, economy.

Markazlashgan va markazlashmagan maqsadli pul fondlarini shakllantirish, jamg`arish, taqsimlash va qayta taqsimlash yoki ishlatish yuzasidan paydo bo`ladigan iqtisodiy munosabatlar majmui moliyani tashkil etadi. Moliya iqtisodiyotning pul sektorida hosil bo`ladigan kategoriya bo`lib, daromadlar asosida yuz beradi.

Pul va pulga tenglashtirilgan aktivlarning harakati natijasida paydo bo`lgan pul sektori orqali davlat byudjetini shakllantiradigan pul fondlari vujudga keladi. Maqsadli pul fondlari deyilganda biz bu Moliya resurslari yoki Moliya ob`yektini ko`z oldimizga keltirmiz. Shu o`rinda moliya ob`ekti bilan bir qatorda moliya

sub`ektiga ta`rif beradigan bo`lsak, Moliya sub`yekti shu fondlarni yaratish, taqsimlash va ishlatishda ishtirok etuvchilar, ya`ni korxonalar (firmalar), turli xo`jaliklar, xonadonlar, nodavlat jamoat tashkilotlari va davlat idoralaridan tashkil topgan. Moliya daromad hosil qilish va uni sarflashni anglatadi.

Bundan tashqari moliyaviy tizimning davlat byudjetining paydo bo`lishi hamda uni saqlab qolishda bevosita katta o`rin tutadi deb aytsak mubolag`a bo`lmaydi, chunki moliya daromadni hosil qiladi hamda uni sarflash orqali pul fondining aylanishini ta`minlaydi.

Dastlab daromadlarni birlamchi taqsimlash orqali korxonalar, davlat va xonadon Moliyasi yuzaga keladi va buning natijasida birlamchi daromadlar hosil bo`ladi, korxonalar Moliya fondlarini tashkil etadi, ishlovchilar o`zlarining ish haqini oladilar va bu xonadon daromadini hosil bo`lishiga asosiy turtki bo`ladi. Davlat daromadining ma`lum bir qismi esa korxonalar byudjetga soliq to`lashi oqibatida yuzaga keladi. Daromadlar ikkilamchi bo`lib taqsimlanganda esa byudjetdan transfertlar (to`lovlar) va turli maxsus fondlar ajratiladi. Daromadlar qayta taqsimlanganda turli nodavlat va jamoat tashkilotlari o`zining maxsus fondlarini tashkil qilish uchun korxonalar va tashkilotlardan, aholidan va byudjetdan pul oladi.

Moliya iqtisodiyotda pul munosabatlari sifatida quyidagi 5 ta muhim funksiyalarni bajaradi:

1. Taqsimlash funksiyasi
2. Rivojlantirish funksiyasi
3. Ijtimoiy himoya funksiyasi
4. Axborot berish funksiyasi
5. Nazorat funksiyasi

Moliyaning taqsimlash funksiyasi. Moliyaning ushbu funksiyasining mohiyati shu bilan belgilanadiki, jamiyatning ishlab chiqarish sohasida yaratilgan yalpi ichki(milliy) mahsulot(milliy daromad) taqsimlanish jarayoning birinchi bosqichida ularni yaratuvchilarning o`zlari tomonidan turli ko`rinishlarda (daromad, foyda, foiz, dividend,renta, ijara, ish haqi mukofot va h.k) taqsimlangan milliy daromadning soliqlar vositasida ikkilamchi taqsimlanishi natijasida shakllantirilgan turli darajadagi pul fondlaridagi mablag`larning doimiy taqsimlanish jarayoni amalga oshirilib turiladi. Bu yerda agar, biz taqsimlanish jarayoniga e`tibor qaratadigan bo`lsak, taqsimlanishning uchinchi bosqichida moliya qatnashadi.

Moliyaning rivojlantirish funksiyasi. Moliyaning rivojlanishi hamda iqtisodiyot sub`yektlarining faolligi oshirish uchun rag`batlantirish muhim ahamiyatga ega.

Moliya vositalarini qo'llash orqali, ya'ni mukofotlash, subsidiya, subvensiya ajratish, jarima solish, sanatsiya va soliqlarni qo'llash vositasida rag'batlantirish amalga oshiriladi. Soliq bozor sharoitida asosiy rag'batlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Soliq to'lash bo'yicha beriladigan turli xil imtiyozlar soliq to'lovchilarning keltiradigan daromadini oshiradi. Va shu bilan birga, ajratiladigan maqsadli imtiyozlar ularni yaxshiroq ishlashga undaydi.

Moliyaning ijtimoiy-himoya funksiyasi. Nochor ya'ni yordamga muhtoj aholi davlatdan, korxonadan va har xil nodavlat tashkilotlaridan va puldor fuqarolardan moliyaviy yordam oladi. Bu vazifani amalga oshirish uchun davlat byudjetining ijtimoiy himoya uchun ajratilgan mablag'lari mavjud.

Moliyaning axborot berish funksiyasi. Mazkur vazifa mamlakat va ayrim sub'yektlarning moliyaviy ahvoli haqida ma'lumot beradi. Bu ko'rsatkichlar orqali davlat iqtisodiyotning rivojlanishiga to'siq bo'layotgan muammolarga yechim topishi mumkin.

Moliyaning nazorat funksiyasi. Moliyaning ushbu funksiyasi asosan, turli darajadagi pul fondlaridagi mablag'larning maqsadli, samarali va manzilli sarflanayotganligini nazorat qilishdagi jarayonlar tushuniladi. Bu yerda shuni ta'kidlash joizki, moliyaning bu funksiyasi asosan davlatning vakolatli organlari tomonidan amalga oshirilgan ekan, moliyaning mavjudligi va uning amal qilishi davlat faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Moliya kategoriyasi davlat faoliyati orqali doimiy jarayon-nazorat jarayoni amalga oshiriladi. Shu jihatdan ham moliyaning aynan ushbu funksiyasi ko'pchilik iqtisodchi olimlar tomonidan tilga olinadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, moliyaning funksiyalari xususida gap ketganda albatta ularning barqarorligi va o'zgaruvchanligi xususida to'xtalish lozim, sababi ularning bir-biridan farqini anglashga imkon beradi. Moliyaning taqsimlash funksiyasi bu doimiy xarakterga ega bo'lib, uning mazmunidan kelib chiqib, keyingi funksiyalarning darajasi belgilanadi. Olaylik, moliyaning nazorat funksiyasi susaysa, pul fondlarining nomaqbul tarzda taqsimlanishiga olib kelishi mumkin, chunki moliyaviy nazorat mablag'larning samarali yoki samarasiz tartibda foydalanish jarayonini ko'rsatib beradi. Umuman olganda yuqorida aytib o'tilganlardan shuni xulosa qilish mumkinki, moliyaning funksiyalari o'zaro bog'liq holda va bir-birini to'ldirib borish tartibida amalga oshiriladi va ularning amaliy faoliyatiga albatta davlatning moliyaviy siyosati ta'sir ko'rsatib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Elmirezayev S. Korporativ moliya. O'quv qo'llanma O'zRO va O'MTV TMI. –T: "Iqtisod-moliya", 2015.
2. Richard A. Brealey, Stewart C. Myers, Franklin Allen. Fundamentals of Corporate Finance. Seventh Global Edition.– McGraw-Hill Education, 2014.
3. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich. Moliya va soliqlar. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2020.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005). O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2020.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Moliya>. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005).